



O'ZBEKISTONDA REAL SEKTOR KORXONALARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA MOLIYA-KREDIT MEXANIZMIDAN FOYDALANISH

THE USE OF THE FINANCIAL AND CREDIT MECHANISM IN IMPROVING THE ACTIVITIES OF ENTERPRISES OF THE REAL SECTOR IN UZBEKISTAN

¹Anvarov Nozimjon
Maxsudbek o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Andijon fakulteti.
ORCID: 0009-0006-5205-6913, G-mail: anvarovnozim40@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada iqtisodiyotning real sektor korxonalari faoliyatini takomillashtirishda moliya-kredit mexanizmlaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali real sektorni qo'llab-quvvatlashda tijorat banklari kreditlari, mikromoliyalash tizimi hamda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan moliyaviy rag'batlantirish choralarining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, real sektor korxonalarini moliyalashtirishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article examines the role of financial and credit mechanisms in improving the performance of enterprises in the real sector of Uzbekistan's economy. The importance of bank lending, microfinance, and government financial support in the development of small business and private entrepreneurship is analyzed. The study also identifies key challenges and proposes recommendations for enhancing the effectiveness of financing real sector enterprises.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ moliya-kredit mexanizmi, real sektor, mikromoliyalash, bank tizimi, mikrokreditlash, real sektor korxonalari, bank krediti, kredit riski, YaIM, pul oqimlari.

❖ finance and credit, real sector, microfinance, banking system, microloan, real sector enterprises, bank credit, credit risk, GDP, cash flows.

Kirish.

O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri mulkdorlar sinfini vujudga keltirishga yordam beradigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jamiyat hayotining barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga ta'sir ko'rsata oladigan asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Shu bois O'zbekiston o'zining mustaqilligi asosida yangi iqtisodiy islohotlar yo'lini joriy etish va bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlarini keng

rivojlantirib, o'zining qonun-qoidalariga suyanagan holda tadbirkor, ishbilarmon va biznesmen kishilarga qulay shart-sharoitlar yaratib berishga intilmoqda.

Moliya-kredit mexanizmi iqtisodiyotning real sektori rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu mexanizm, asosan, tijorat banklarining kreditlash siyosati, davlat tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan mablag'lar, shuningdek, boshqa moliyaviy vositalar orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonning iqtisodiy

rivojlanishining asosiy manbalaridan biri real sektor bo'lib, bu sektorni to'g'ri moliyalashtirish uning samarali faoliyatini ta'minlaydi.

Tadbirkorlikni tashkil etishdan maqsad iqtisodiyotdagi sust faoliyat yurgizayotgan tarmoqlarni faollashtirish hamda integratsiyalashuv yordamida tarmoqlarni yangi muhitga o'rgatib borishdan iborat.

Tadbirkorlik subyektlari moliya-kredit mexanizmlaridan foydalangan holda ishlab chiqarishni tashkil etish, mavjud korxonalarni yangi texnika va texnologiyalar asosida modernizatsiyalash, zamonaviy ishlab chiqarish bino va inshootlarini qurish kabi faoliyatlarni amalga oshirayotganligini ko'rishimiz mumkin.

«Innovatsiya tadbirkorligini joriy etishga, «startap» loyihalar, yoshlarning, avvalo oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarining o'z biznesini tashkil qilish va yuritishga, shuningdek, aholi bandligi va daromadlarining jadal o'sishini ta'minlashga xizmat qiladigan kichik, xususiy va oilaviy tadbirkorlik, kasanachilikning turli shakllarini jadal rivojlantirishga faol ko'maklashish» [1].

Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan tadbirkorlik muhitini yaxshilash va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga oid farmon va qarorlarning ijrosini ta'minlash borasida banklar tomonidan katta miqyosda ishlarni amalga oshirmoqda. Tijorat banklari tomonidan kredit mablag'lari iqtisodiyotning real sektorlariga, shu jumladan aholi uchun zarur bo'lgan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqaradigan ixcham minitexnologiyalarni sotib olish hamda xizmat ko'rsatishni rivojlantirishga ajratilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, real sektor korxonalari faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali rivojlantirish masalalari iqtisodiy o'sishni

ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida keng o'rganilgan. Xususan, xorijiy tadqiqotchilar tomonidan moliya-kredit tizimining real sektor rivojiga ta'siri, bank kreditlarining investitsion jarayonlardagi o'rni hamda kredit risklarini boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur yo'nalishda ilmiy-nazariy va metodologik qarashlar rivojiga hissa qo'shgan xorijiy olimlar qatoriga O. Afanaseva, I. Yudina, E. Yeskomb, J. Sinkey hamda Y. Shumpeter kabi tadqiqotchilarni kiritish mumkin. Ularning ilmiy ishlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda tijorat banklari tomonidan real sektor korxonalarini moliyalashtirish, kreditlashning muddatlari va risk darajasini optimallashtirish masalalari chuqur tahlil qilingan.

Xorijiy tajribaga asoslangan nazariy-metodologik yondashuvlar asosan moliya-kredit resurslarini samarali taqsimlash, bank tizimi orqali investitsion faollikni oshirish, shuningdek, real sektorni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan makroiqtisodiy siyosat modellari bilan izohlanadi. Ushbu yondashuvlar real sektor korxonalarining barqaror rivojlanishida bank kreditlari va mikromoliyalash tizimining muhim rolini asoslab beradi. Mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida esa O'zbekiston sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish, real sektorni rivojlantirishda davlat va bank tizimi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilgan. Jumladan, mahalliy tadqiqotlarda real sektorni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning institutsional asoslari, kreditlash mexanizmlarining samaradorligi hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga moliya-kredit siyosatining ta'siri keng yoritilgan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili real sektor korxonalarini moliyalashtirishda moliya-kredit mexanizmlarining kompleks samaradorligini oshirish, kredit risklarini kamaytirish va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash bilan

bog'liq masalalar yetarli darajada chuqur o'rganilmaganligini ko'rsatadi. Mazkur holat ushbu yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini asoslab beradi.

D.V. Savinova ning ilmiy qarashlariga ko'ra, jahon miqyosida tadbirkorlik nazariyasining shakllanish jarayoni shartli ravishda "uchta to'lqin" bosqichiga ajratib tahlil etilishi mumkin. Olimning fikricha, mazkur jarayon nazariy-metodologik jihatdan turlicha yondashuvlarga asoslangan bo'lib, hanuzgacha barcha davlatlar uchun yagona va umumiy tadbirkorlik nazariyasi shakllantirilmagan [2]. prof. Y. Abdullayev "Respublikamizda umumiy tadbirkorlikning taraqqiyotini 4 ta (vujudga kelish davri - XIX asr uchinchi choragidan 1917-yilgacha, turg'unlik davri 1918-1985-y., jonlanish davri 1985-1991-y.y., tiklanish davri mustaqillikdan keyingi davr) tarixiy davrlarga bo'lib o'rganish fikrini ilgari suradi" [3].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi O'zbekiston iqtisodiyotining real sektori

korxonalarini rivojlantirishda moliya-kredit mexanizmlarining samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi - kichik va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini moliyalashtirish, innovatsiyalarni joriy etish va ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlash. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, AQSh, G'arbiy Yevropa, Yaponiya, Singapur va Janubiy Koreya Respublikasi olimlari kichik biznes va startaplar faoliyatini moliyalashtirish, innovatsiyalarni tijoratlashtirish va ularni iqtisodiyotga integratsiyalash jarayonlarini tizimli o'rganishga katta e'tibor qaratgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini kreditlash bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazaning takomillashtirilishi va mikromoliyalash sohasining rivoji uchun qulay muhit yaratilishi natijasida hozirda tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlar, shu jumladan ko'rsatilayotgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmining jadal sur'atlarda o'sishi kuzatilmoqda.

1-jadval

Jahon bankining "Biznesni yuritish" dunyo reytingida O'zbekiston reytingi o'zgarishi indikatorlarning maqsadli ko'rsatkichlari [4]

№	Indikator	Maqsadli prognoz ko'rsatkichlar				
		2020 y.	2024 y.	2022 y.	2023y.	2024 y.
1	Korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish	23	18	13	10	10
2	Qurilishga ruxsat olish	127	100	80	50	45
3	Elektroenergiya tizimiga ulanish	63	53	43	33	30
4	Mulkni ro'yxatdan o'tkazish	55	45	35	25	20
5	Kredit olish	38	28	25	20	20
6	Minoritar investorlarni himoyalash	60	55	45	35	30
7	Soliq to'lash	118	98	78	50	35
8	Xalqaro savdo	135	100	80	50	40
9	Shartnoma bajarilishini ta'minlash	33	28	25	20	20
10	To'lov qobiliyatini ta'minlash	67	57	50	45	40
11	Davlat xaridi	-	-	-	50	50
12	Mehnat bozorini tartibga solish	-	-	-	50	50

Tadqiqot jarayonida sifat va miqdoriy metodlar uyg'un qo'llaniladi:

❖ Sifat metodlari: ekspert so'rovlar, tadqiqotlar va ilmiy manbalarni tahlil qilish;

❖ Miqdoriy metodlar: kredit hajmlari, mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatkichlari, ruxsat berish jarayonlari va soliq

imtiyozlarining statistik ko'rsatkichlari asosida iqtisodiy tahlil.

Shuningdek, tadqiqot O'zbekiston Respublikasi qonunosti hujjatlari, prezident farmonlari va davlat dasturlari asosida real sektor korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlanishini, innovatsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini va ularning samaradorligini o'rganadi. Bu yondashuv tadqiqot natijalarini amaliy tavsiyalar bilan boyitish va iqtisodiy siyosatni takomillashtirish imkonini beradi. Natijada, tadqiqot metodologiyasi real sektor korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, moliya-kredit mexanizmlarining samaradorligini oshirish va kichik biznesda innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida bank tizimida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar, jumladan, ajratilayotgan kreditlar hajmining jadal sur'atlarda oshishida o'z aksini topmoqda.

Mustaqillik yillarida respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar bosqichma-bosqich yaratildi hamda kichik biznes iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Ushbu davrda huquqiy asoslar shakllantirildi, tashkiliy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yo'lga qo'yildi, kichik biznes subyektlarining faoliyat yuritish imkoniyatlari kengaydi. Natijada kichik biznes aholi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini ko'paytirish va iqtisodiy faollikni oshirishda muhim rol o'ynay boshladi.

Shu bilan birga, kichik biznesni rivojlantirish jarayonida ayrim tashkiliy, moliyaviy va institutsional muammolar ham yuzaga kelmoqda. Xususan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari,

infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, axborot va maslahat xizmatlariga bo'lgan ehtiyojning saqlanib qolishi ushbu sohaning rivojlanish sur'atlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur masalalarni hal etish kichik biznesning barqaror rivojini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, kichik biznesni yanada rivojlantirish jarayonida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlarning izchilligi va samaradorligi muhim hisoblanadi. Bu esa tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadbirkorlikni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni, avvalambor, xalqaro moliya institutlarining kreditlarini hamda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni keng jalb etish va yo'naltirish orqali sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda yuqori texnologiyaga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar joriy etilishini rag'batlantirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish masalalarini tubdan hal etish, ularning eksport salohiyatini oshirishga, eksportga mo'ljallangan mahsulotini jahon va mintaqaviy bozorlarga olib chiqishga ko'maklashish zamirida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka xizmat qiluvchi moliya-kredit mexanizmlarining ishlash samaradorligi alohida o'ringa ega hisoblanadi.

Jumladan, 2018-yil 1-yanvardan boshlab davlat va nazorat organlarining tadbirkorlik subyektlari moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashmasligi borasida moratoriy e'lon qilindi, kichik korxonalar tashkil qilish hamda kichik korxonalar va tadbirkorlarni ro'yxatdan

o'tkazish tartib-qoidalarini yanada soddalashtirish, kichik biznes subyektlarini qurish va ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash, noturarjoy xonalari va

zarur yer uchastkalarini ajratib berish borasidagi masalalarni hal etish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni qabul qilishda tadbirkorlarning mustaqilliga ta'minlandi.

2-jadval

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda ruxsat berish jarayonlarini qisqartirilishi va to'lovlarning optimallashtirilishi

№	Ruxsat berish bilan bogʻliq jarayonlar turlari	Toʻlov miqdori				Toʻlov miqdorining qisqarishi, foizda
		Avval amalda boʻlgan		Yangi kiritilgan		
		eng kam ish haqi miqdori boʻyicha	soʻmda*	eng kam ish haqi miqdori boʻyicha	soʻmda*	
1	Tadbirkorlik subyektlarini davlat roʻyxatidan oʻtkazish	5	140200	2	56080	- 60
2	Bankda hisob raqamini ochish	1	28040	0,5	14020	- 50
3	Arxitektura-rejalashtirish topshiriqlarini ishlab chiqish	40	1120000	10	280400	- 75
4	Yer uchastkasini rasmiylashtirish	-	130000	-	58000	- 56
5	Ekologik ekspertiza	25	701400	1	28040	- 96
6	Loyiha-smeta hujjatlarini ekspertiza qilish	10	280400	3	84120	- 70
7	Qurilish davomida nazorat-ijro sʻemkalari oʻtkazish	5	140200	3	84120	- 40
8	Normativlar loyihalarining ekologik ekspertizasini oʻtkazish	75	2103000	1	28040	- 98,7
9	Gigiyenik sertifikatlar olish	10	280400	3	84 120	- 70
10	Jami toʻlovlar qiymati (litsenziya va ruxsatnomalarsiz)	-	5037660	-	830960	- 83,5

2-jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda ular uchun qulay institutsional sharoitlar yaratish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq ruxsat olish jarayonlarida to'lov miqdorlarining sezilarli darajada qisqartirilishi ushbu sohada tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, turli xil imtiyoz va preferensiyalarni kengaytirish, hisobot topshirish tartibini soddalashtirish, moliya, soliq va statistika organlariga ma'lumot taqdim etish mexanizmlarini takomillashtirish kabi

choralar ko'rilmogda. Shuningdek, ushbu subyektlarni kredit resurslari bilan ta'minlash mexanizmlarini rivojlantirish hamda kreditlash hajmini oshirish bo'yicha ham amaliy choralar izchil amalga oshirilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Real sektor iqtisodiyoti mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Tijorat banklari tomonidan real sektor korxonalarini kreditlash amaliyoti, yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni ta'minlaydi. Shuningdek, real sektorning rivojlanishiga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va moliyaviy vositalar, kreditlar, imtiyozlar va soliq siyosatining samarali amalga oshirilishi katta ta'sir

ko'rsatadi. Mamlakatimizda real sektorning rivojlanishini ta'minlash, o'z navbatida, iqtisodiyotning yanada mustahkam o'sishiga, yangi ish o'rinlarini yaratishga va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida real sektor korxonalarining faoliyatini takomillashtirishda moliya-kredit mexanizmidan foydalanish samarali rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Banklar tomonidan kichik va o'rta biznesga ajratilgan kreditlar hajmining yildan yilga ortishi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kuchaytirilishi, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni hal qilish va kreditlash shartlarini soddalashtirish uchun amaliy chora-tadbirlar ko'rish zarurati saqlanib qolmoqda.

Tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida

xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etiladigan kreditlar hamda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish va ularni samarali yo'naltirish sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, shuningdek yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish, ularning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish hamda eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni jahon va mintaqaviy bozorlar raqobat muhitiga olib chiqishda moliya-kredit mexanizmlarining samarali faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 19-iyundagi «Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5087-son Farmoni.
2. Савинова Д. В. О формировании механизма привлечения кредитных ресурсов в малый бизнес // Деньги и Кредит. - Москва, 2009. - № 5. - С. 60-61.
3. Y. Abdullayev, F. Karimov. Kichik biznes va tadbirkorlik. - T.: Mehnat. 2000-y.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 30-sentabrdagi «Jahon bankining "Biznesni yuritish" yillik hisobotida O'zbekiston reytingini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.
5. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.